The advent of technology has revolutionized English teaching in higher education. Language labs, multimedia resources, and online platforms provide interactive and diverse learning experiences. Tools such as learning management systems (LMS), video conferencing, and language learning apps offer flexibility and personalized learning opportunities, making English learning more dynamic and accessible.

**Innovative Approaches.** **Blended Learning.** Blended learning combines traditional classroom instruction with online learning components. This approach caters to different learning styles and offers the flexibility to review materials and practice skills independently. Blended learning can enhance student engagement and provide a more comprehensive learning experience. **Flipped Classroom.** The flipped classroom model inverts the traditional teaching structure. Students are introduced to new content through videos, readings, or online modules before class, allowing classroom time to be dedicated to interactive activities such as discussions, projects, and collaborative exercises. This method maximizes classroom interaction and provides more opportunities for personalized instruction. **Content and Language Integrated Learning (CLIL)**

CLIL involves teaching academic subjects through the medium of English. This dual-focused approach enhances both language proficiency and subject knowledge. By integrating language learning with subject content, CLIL promotes cognitive development and prepares students for the demands of a globalized job market.

### Future Directions Artificial Intelligence and Language Learning

Artificial Intelligence (AI) holds significant potential for the future of English teaching. AI-powered language learning apps, chatbots, and virtual tutors provide personalized feedback and adaptive learning paths. AI can analyze students' strengths and weaknesses, offering tailored exercises and recommendations, thus optimizing the learning experience.

**Gamification** Gamification incorporates game elements into language learning, such as points, badges, and leaderboards. This approach increases motivation and engagement by making learning more enjoyable and competitive. Gamified platforms can encourage consistent participation and enhance language acquisition. **Cultural Competence and Globalization.** As the world becomes more interconnected, developing cultural

competence is increasingly important. Future English teaching methods will likely incorporate intercultural communication training, preparing students to navigate diverse cultural contexts effectively. Emphasizing global perspectives in language education will equip students with the skills needed to thrive in an international environment.

**Conclusion.** The development of teaching methods in English for higher education students reflects broader trends in education and technology. From the traditional Grammar-Translation Method to innovative, technology-enhanced approaches, the evolution of English teaching aims to create more effective, engaging, and relevant learning experiences. As we look to the future, emerging technologies and global perspectives will continue to shape the landscape of English education, preparing students to meet the challenges and opportunities of a rapidly changing world.

## REFERENCE

1. Панкратов Ф. Г. , Баженов Ю. К. , Шахурин В. Г. Основы рекламы. Москва: Дашков и Ко, 2005. – 532 б.
2. Пекарь В. , Клишина М. Всякому городу маркетинг и туризм (практическая методика развития местного туризма) // Гостиничный и ресторанный бизнес. 2011. № 3. С. 32-36.
3. Пирогова Ю. К. Ложные умозаключения при интерпретации рекламы // Реклама. 2000. № 2. С. 15–18.

**PR MATN JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING TA'SIRCHAN  
METODI SIFATIDA**

**O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,  
To'g'on va Qudrat Ernazarovlar nomidagi jamoatchilik bilan aloqalar  
kafedrası o'qituvchisi  
Qahhorova O'g'iloy Norchayevna**

**Annotatsiya:** Har qanday munosabatning uzoq, ijobiy, ko'tarinki kayfiyatda davom etishiga muloqot usuli, turi va shakli bevosita ta'sir etadi. Yuzma-yuz gaplashganda nafaqat so'zlar, balki undan ham ta'sirchanroq yuz ifodalari, ko'z qarashlarini ishlatish mumkin, toki, kommunikatsiya sifati juda yuqori vasamaralibo'lishigaerishishmumkinbo'lsin.PRmatnlarningbarchaturiniularinghajmi, maqsadli auditoriyasivamazmunidanqat'iynazaryagonamaqsadbirlashtiribturadi. Uham bo'lsa, jamoatchilikka ta'sir qiluvchi axboriy muloqotni yo'lga qo'yishdir. Ushbu maqola bugungi kunda jurnalistika sohasining uzviy qismi bo'lgan PR matnlarni shakllantirishga yordam beradi. PR matn nima? Uni qo'llash masalalariga oydinlik kiritishi shubhasiz.

**Kalit so'zlar:** PR matn, O'zbek mediasi, matnlar klassifikatsiyasi, Axborot xizmatlari

**Аннотация:** Способ, тип и форма общения напрямую влияют на продолжение любых отношений в долгом, позитивном, приподнятом настроении. При разговоре с глазу на глаз можно использовать не только слова, но и еще более впечатляющую мимику, взгляд глаз, благодаря чему качество общения очень высокое. Все виды PR-текстов, независимо от их размера, целевой аудитории и содержания, объединены единой целью. Даже если это так, то именно создание информационных коммуникаций влияет на общественность. Данная статья поможет сформировать PR-тексты, которые сегодня являются неотъемлемой частью сферы журналистики. Что такое PR-текст? Нет сомнений, что оно прольет свет на вопросы его применения.

**Ключевые слова:** PR-текст, СМИ Узбекистана, классификация текстов, Информационные услуги.

**Abstract:** The method, type and form of communication directly influence the continuation of any relationship in a long, positive, high mood. When talking face to face, you can use not only words, but also even more impressive facial expressions and eye gaze, thanks to which the quality of communication is very high.

All types of PR texts, regardless of their size, target audience and content, are united by a single goal. Even if this is so, it is the creation of information communications that influences the public. This article will help formulate PR texts, which today are an integral part of the field of journalism. What is PR text? There is no doubt that it will shed light on issues of its application.

**Keywords:** PR text, media of Uzbekistan, text classification, Information services. Har qanday tashkilot o'zining uslubi, tili matni, hattoki sloganiga ega bo'lish uchun imiji ustida ish olib boradi. Ushbu imijni shakllantirish uchun kompaniyalar PR matnlarga muhtoj. PR matnlar jamoatchilik fikrini o'rganishda, uni tahlil etib maqsadli auditoriyaga yetib borishda katta ahamiyatga egadir.

PR matnlar turli janrlarda qo'llanilsada, ular bir xil missiyani bajaradi. Uni tasnif etish uchun turli vositalardan foydalanish mumkin. Avvalo, PR matn nima ekanligini bilish talab etadi. Uni tasnifida turli olimlarning qarashlari mavjud. Ular o'z tasnifiga ko'ra, turli turlarga tasniflanib ketadi.

Jozef M. Zappala va Anna R. Kardenning "Public Relations writing worktext" kitobida PR matnlarning asosiy to'rt maqsadi haqida fikr bildiriladi. Mualliflar ommaviy kommunikatsiyada bo'lgani kabi PR matnlar ham quyidagi maqsadlarda yoziladi<sup>1</sup> deb hisoblashadi. - xabar berish – yon-atrofdan sodir bo'layotgan voqea hodisalarni yaxshiroq tushunishi uchun ehtimoliy xavflar, imkoniyatlar, tahdidlardan jamoatchilikni xabardor etadi; Ishontirish – odamlarning o'zlari istagandek xulq-atvorini ko'rsatishi va buning jamoatchilik tomonidan hech bir muammosiz yaxshi qabul qilinishiga ishontiradi; o'rgatish-odamlarni jamoatchilik fikriga o'rgatisha olib keladi, yangi muhitga moslashish uchun ko'nikmalarni shakllantiradi;

- Ko'ngilochar – odamlarni ko'ngilochar va zavq ulashuvchi kontent bilan ko'ngilni oladi, mamnun qiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan to'rt maqsaddan eng kuchlisi sifatida "xabar berish", "o'rgatish" va "ishontirish" e'tirof etiladi. Hattoki, ko'ngilochar kontentlarda ham yoki

<sup>1</sup> Zappala J. M., Karden A. R. Public Relations writing work text. Routledge. 2009. –p. 48.

xabar berish yoki o'rgatish maqsad qilgan bo'ladi.

Shakl va janr jihatdan esa mutaxassis va amaliyotchi olimlarning o'ziga xos fikrlari mavjud. Quyida bir nechta olimlarning PR matnlarning turi va janrlari haqidagi bir-birini to'ldiruvchi, hattoki, inkor etuvchi xulosalarini taqdim qilamiz.

PR matnlari A.D.Krivososovning monografiyalarida yetarlicha batafsil o'rganilgan, u PR olamida aylanib yuradigan barcha PR matnlarining quyidagi janrlarini keltirib o'tadi<sup>2</sup>:

- tezkor yangiliklar janrlari (axborot yangiliklari): press-reliz, taklifnoma;
- tadqiqot va yangiliklar janrlari: foner, savol-javob varaqasi, tasvirli intervyu;
- faktik janrlar: faktlar varaqasi, biografiya;
- tadqiqot janrlari: media bayonoti, tasvirli maqola, voqea hikoyasi;
- obrazli yangiliklar janrlari: baylayner, tabriklar, xat.

M. V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti jurnalisti-ka fakulteti reklama va jamoatchilik bilan aloqalar kafedrasida tayyorlangan S.V.Ponomarevning nomzodlik dissertatsiyasida PR matnlarining boshqacha tipologiyasi berilgan. S.V. Ponomarev<sup>3</sup> jamoatchilik bilan aloqalar sohasida har xil turdagi matnlarni tayyorlashning o'ziga xosligi, kommunikativ yo'nalishi va tamoyillarini ko'rib chiqadi va turli auditoriyalarga qaratilgan matn shakllarining uchta asosiy guruhini funksional jihatdan aniqlaydi:

- ommaviy axborot vositalari uchun materiallar;
- korporativ muloqotda foydalaniladigan matn shakllari;
- ommaviy auditoriyaga tarqatish uchun mo'ljallangan matnlar.

Muallifning fikriga ko'ra, bunday bo'linish juda shartli, chunki bir xil matnlar turli auditoriyalarga yo'naltirilishi mumkin. Ya'ni misol uchun kompaniyaning yillik hisobotini olaylik. Bir tomondan, uning asosiy vazifasi aksiyadorlarni kompaniyadagi ishlarning holati va kelajak istiqbollari to'g'risida xabardor qilishdir. Shu bilan birga, yillik hisobotdan kompaniya imijini shakllantirish va obro'sini mustahkamlashda samarali foydalanish mumkin. Yillik hisobotni jurnalistlar va ekspertlarga yuborish orqali ommalashtirish, xodimlar o'rtasida taqsimlash va ba'zi hollarda bevosita jamoatchilik e'tiboriga to'g'ridan to'g'ri havola etish mumkin. S. Ponomarev jamoatchilik bilan aloqalarda eng faol qo'llaniladigan matnlarning quy-

2 Кривососов А. Д. PR-текст в системе публичных коммуникаций. СПб, 2001. –с.58.

3 Пономарев С. В. Вербальные коммуникации в системе публичных отношений: дис. канд. филол. наук. М., 2001. –с. 65.



idagi turlarini ajratadi<sup>4</sup>: press-reliz, fon va faktlar varag‘i, savol-javob shakli (savol-javob), axborot byulleteni, korporativ axborot byulleteni, pozitsion bayonotlar (pozitsiya qog‘ozi), nutq, eslatma, ko‘ngilochar maqolalar, tayyorlangan nashrlar (tahliliy, nominal, voqea hikoyalari, reklama va “maxsus” nashrlar), hisobot (yillik yoki choraklik), bukletlar, korporativ gazeta va jurnallar, varaqalar, PR dasturlari.

A. Bogoyavlenskiy esa yuqoridagi ikki tadqiqotchining fikrlarini tahlil qilgan holda, biroz boshqacharoq xulosalar beradi. Masalan A. Bogoyavlenskiy bukletlar, varaqalar, gazeta va jurnallarni matn turlariga ajratmaydi, ular “matn emas, balki ularning tashuvchisi”<sup>5</sup> va hokazo ekanligini ta’kidlaydi. U korporativ gazeta va jurnallarning yangi sohalarini PR matnlari sifatida emas, balki ularning istiqbolli tashuvchilari sifatida batafsil yoritadi.

Olim PR matnlar tipologiyasiga “yopiq nashrlar”<sup>6</sup> atamasini taklif qiladi: juda yopiq jamoat tuzilmalari ichida subkommunikatsiya vositasi sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan “inflight” va “fanzin” matn turlariga alohida to‘xtalib o‘tadi.

Dennis L. Uilkoks<sup>7</sup> aloqa kanallari bo‘yicha PR matnlarini ommaviy axborot vositalari uchun materiallarga va boshqa aloqa kanallari uchun materiallarga (Internet saytlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri pochta, ommaviy nutq, reklama xabarlar va boshqalar) ajratadi.

Rossiya Federatsiyasi Kurgan Davlat universiteti tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra PR matnlar ishlash prinsipiga ko‘ra: oddiy va murakkab matnlarga ajratiladi.

Oddiy PR matn - bu o‘ziga xos matn, ya’ni boshqa matn shakllaridan farq qiluvchi va PR aloqalari makonida mustaqil va o‘zini-o‘zi ta’minlaydigan matn birligi sifatida mavjud bo‘lgan va faoliyat yuritadigan ma’lum bir obyekt. Masalan: press-reliz, taklifnoma, faktlar varaqasi, tarjimai hol, savol-javoblar varaqasi, baylayner, xat, tabriklar, ommaviy axborot vositalari orqali tarqatiladigan bayonotlar.

Murakkab PR matn - bu umumiy mavzu (yangilik) bilan birlashtirilgan asosiy oddiy PR matnlarining “to‘plami”, birlashtirilgan makromatn. Masalan: matbuot to‘plami, prospekt yoki risola, buklet, axborotnoma.

Shu o‘rinda o‘zbek olimlarining ham “press to‘plam” haqidagi fikrlarini keltirib o‘tish mumkin. Chindan ham press to‘plam hajman katta matn hisoblanadi. “un-

4 Пономарев С. В. Вербальные коммуникации в системе публик рилейшенз: дис. канд. филол. наук. М., 2001. –с.84.

5 Богоявленский А. Е. Типы текстов публик рилейшенз и носители ПР-сообщений // Вестн. ВГУ. Сер. Филология, журналистика. 2004. № 1. –с. 154.

6 O‘shamanba. –b. 157

7 Уилкокс Д.Л. Как создавать PR-тексты и эффективно взаимодействовать со СМИ. М., 2004. –с. 43.

dan press konferensiyalar, taqdimot marosimlari, ko'rgazmalar, aksionerlarning yillik yig'ilishlarida juda keng foydalaniladi"<sup>8</sup>. Press to'planning asosiy vazifasi sodir bo'lgan voqea-hodisa haqida OAVga ma'lumot taqdim etishdir. Press to'plam nafaqat tadbirda ishtirok etgan jurnalistlarga, balki, unga qiziqqan, biror sabab bilan qatnasholmay qolgan jurnalistlarga ham taqdim etiladi. Bu orqali jurnalistlarning kelgusida tadbir haqida jurnalistik material tayyorlashini yengillashtirish mumkin. Press to'planning tarkibi biroz murakkabroq, ya'ni to'plamda taqdim etilgan barcha ma'lumotlar batafsil berilishi kerakki, tadbirda qatnashmagan jurnalist ham to'liq tasavvur qila olsin va ishonarli maqola tayyorlay olsin. "Zamonaviy media muhitda PR-xizmatlar" kitobining mualliflari eng kam miqdordagi press to'plamga quyidagi hujjatlar<sup>9</sup> kiradi deb hisoblashadi:

- press reliz;
- Axborot xati (bekgraunder) yoki faktlar ma'lumotnomasi (fakt-list);
- Tadbir xarakteridan kelib chiqib bir yoki nechta qo'shimcha materiallar;

Yanada murakkabroq to'plamga esa yuqoridagilarga qo'shimcha sifatida quyidagilarni kiritish mumkin, deydi mualliflar:

- tadbir dasturi;
- matbuot uchun bayonet
- asosiy shaxslar bilan intervyular
- tarjimai hol
- tahliliy maqola
- risola
- korporativ nashr
- yillik hisobot

Shuncha turdagi hujjat nima uchun kerak, degan savol paydo bo'lishi tabiiy. Jurnalist o'zi tayyorlamoqchi bo'lgan maqola uchun har bir ma'lumotni rasmiy manbaga asoslangan holda keltirishni xohlaydi. Tashkilot axborot xizmati xodimi esa aynan rasmiy manba sifatida, ishonchli va tasdiqlangan xabarni batafsil taqdim etishga mas'ul hisoblanadi.

Kurgan davlat universiteti taklif qilayotgan navbatdagi tasnif ikki mezon bo'yicha amalga oshiriladi: maqsadli va ommaga yetkazish usuliga ko'ra. PR menejeri ommaviy auditoriya bilan emas, balki ixtisoslashgan auditoriya bilan ishlashi kerak:

- muayyan ommaviy kommunikatsiya turining haqiqiy auditoriyasi;

8 Zamonaviy media muhitda PR xizmatlar. J. VIII. –T: "O'zbekiston" NMIU, 2019. –b. 186.

9 O'sha manba.–b. 186.

- muayyan ommaviy aloqa kanalining haqiqiy auditoriyasi;
- haqiqiy media auditoriyasi;

Shunday qilib, iste'molchilar guruhiga (adresat, PR aloqasi ishtirokchilari) qarab, biz PR matnlarini tashqi va ichki omma uchun mo'ljallanganlarga ajratiladi:

– tashqi jamoatchilik uchun: press-reliz, taklifnoma, fon muallifi, savol-javob varaqasi, faktlar varag'i, tarjimai hol, baytar, tabriklar, ommaviy axborot vositalari bayonoti, matbuot to'plami, yillik hisobot, prospekt, buklet, axborot byulleteni, varaqa, matbuot sharhi, yillik hisobot, rasmlı maqola, tasvirli intervyu, voqea hikoyasi;

- ichki jamoatchilik uchun: taklifnoma, tarjimai hol, xat, tabriklar, yillik hisobot, axborotnoma, matbuot sharhi.

O'z auditoriyasining idrokidan tashqarida bo'lgan har qanday matnni nuqsonli deb hisoblash mumkin, chunki aniq matn haqiqatan ham faqat auditoriya (o'quvchi) tomonidan idrok etish jarayonida mavjud. Matnning kommunikativ yo'nalishi ma'lum turdagi o'quvchi-adresantga yo'naltirilganlikda ifodalanadi. Psixologiyada matnni o'quvchi tomonidan idrok etish natijasi –“matn proyeksiyasi” atamasi borligi bejiz emas. PR-matn aloqa faoliyatining bir turi sifatida har doim PRning asosiy subyekti o'z matnli xabarini yuboradigan adresat bilan ishlashdir. “Hamma uchun maqsad” PR-matnga integratsiya xarakterini beradi va u yoki bu ijtimoiy guruhlar uchun hisob-kitoblar farqlanadi. PRning maqsadi subyektning jamoatchilik bilan samarali aloqa tizimini shakllantirishdir. Omma deganda biz “manfaatlari va qadriyatlari bozor, ijtimoiy-siyosiy yoki boshqa sohalar bilan bog'liq bo'lgan, jamoat maqomiga ega bo'lgan, PR subyektlarining jamoat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan keng ommaning elementini” tushunamiz. Jamoatchilik subyektivdir, chunki u individual ijtimoiy va shaxsiy ongga ega bo'lgan shaxslardan iborat. Lekin shu bilan bir vaqtda obyektiv hamdir. Chunki, u mazmuni va umumiy manfaatlari va qadriyatlariga ega bo'lgan obyekt atrofida ijtimoiy faol harakatda bo'ladi.

Maqsadli auditoriya va funksional maqsadlar bo'yicha matn turlarini diversifikatsiya qilish: jurnalistlar uchun press-reliz bilan bir qatorda, jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassislar IR-relizlar<sup>10</sup> (Investor Relations reliz), iste'molchilar uchun relizlar (to'g'ridan-to'g'ri iste'molchiga nashr) chiqaradilar. Har bir maqsadli auditoriya o'z xabariga ega. Internet muhiti iste'molchilar bilan vositachilar-siz (ommaviy axborot vositalarisiz) muloqot qilish imkonini beradi, shuning uchun

10 Scott D. M. The New Rules of Marketing and PR: How to Use Social Media, Blogs, News Releases, Online Video, and Viral Marketing to Reach Buyers Directly. John Wiley and Sons, New Jersey, 2010.–p. 87.

iste'molchilar uchun reliz kabi testlarning yangi turlarini yaratish zarurati tug'ildi. PR mutaxassis maqsadli auditoriyaning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishi juda muhim. Birinchidan, "hammaga gapirish- hech kimga gapirmaslik bilan teng". Ikkinchidan, PR bu ikki tomonlama muloqot sifatida har doim jamoatchilik manfaatlarini hisobga oladi va ularni eshitishga hamisha tayyor bo'lishi kerak. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, PR matnlar jamoatchilik fikrini shakllantirishda katta ahamiyta kasb etadi. Undan marketing va PR xizmatlari turli maqsadlarda foydalanishiga qarab o'z funksiyasini bajarishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

Zappala J. M., Karden A. R. Public Relations writing work text. Routledge. 2009. –p. 48.

Кривоносов А. Д. PR-текст в системе публичных коммуникаций. СПб, 2001. –с.58.

Пономарев С. В. Вербальные коммуникации в системе публичных релейшенз: дис. канд. филол. наук. М., 2001. –с. 65.

Пономарев С. В. Вербальные коммуникации в системе публичных релейшенз: дис. канд. филол. наук. М., 2001. –с.84.

Богоявленский А. Е. Типы текстов публичных релейшенз и носители PR-сообщений // Вестн. ВГУ. Сер. Филология, журналистика. 2004. № 1. –с. 154.

Уилкоккс Д.Л. Как создавать PR-тексты и эффективно взаимодействовать со СМИ. М., 2004. –с. 43.

Zamonaviy mediamuhitda PR xizmatlar. J. VIII. –T: "O'zbekiston" NMIU, 2019. –b. 186.

Scott D. M. The New Rules of Marketing and PR: How to Use Social Media, Blogs, News Releases, Online Video, and Viral Marketing to Reach Buyers Directly. John Wiley and Sons, New Jersey, 2010. –p. 87.

**НАРКОМАНИЯ - ХАВФЛИ ИЛЛАТ****Облокулов Шавкат Шамсиевич,**

Бухоро давлат тиббиёт институти Биологик кимё кафедраси ассистенти

**Рахманов Отабек Расулович**КИУТ Тошкент Кимё халқаро университети Тиббий фундаментал фанлар  
кафедраси ассистентиORCID: <https://orcid.org/0009-0001-0509-4523>**Турдалиев Комилжон Махсуталиевич**Тошкент Давлат Стоматологи институти Физиология ва патология  
кафедраси ассистенти.

**Аннотация.** Инсон наркотик хусусиятга эга бўлган моддани истеъмол қилганида, унинг организмида кечадиган биокимёвий жараёнларга ўз таъсирини ўтказди. Биокимёвий реакциялар боришини бошқарувчи гормонлар ишлаб чиқарилишида ўзгаришлар содир бўлиб, организм ҳаётининг фаолиятининг маромини бузади. Ушбу мақолада юқоридаги ҳолатларнинг келиб чиқиши ва оқибатлари тўғрисида фикр юритилади, шунингдек инсониятнинг қадимги даврларда наркотик моддалар хусусиятларини билиб олиши ва фойдаланиши тарихи, наркотик модда сақловчи ўсимликлар ҳақида антик давр олимларининг фикрлари ҳам ўрин олган.

**Калит сўзлар:** наркомания, каннабис, нейронлар, гормонлар, дофамин, инсон психикаси, депрессив ҳолатлар.

## **ЗАВИСИМОСТЬ - ОПАСНЫЕ ПОРОКИ**

**Облокулов Шавкат Шамсиевич,**

Бухарский государственный медицинский институт

Ассистент кафедры биологической химии

**Рахманов Отабек Расулович**

КИУТ Ташкентского международного университет Кимё

Ассистент кафедры фундаментальных медицинских наук

**Турдалиев Комильжон Максуталиевич**

Ташкентский Государственный Стоматологический институт

Ассистент кафедры физиологии и патологии.

**Аннотация.** Когда человек потребляет вещество, обладающее наркотическим свойством, он по-своему влияет на биохимические процессы, происходящие в его организме. Происходят изменения в выработке гормонов, контролирующих протекание биохимических реакций, нарушающих ритм жизнедеятельности организма. Эта статья размышляет о происхождении и последствиях вышеуказанных случаев, а также включает в себя историю познания человечеством и использования наркотических свойств в древности, мнения ученых древности о наркотикосодержащих растениях.

**Ключевые слова:** наркомания, каннабис, нейроны, гормоны, дофамин, психика человека, депрессивные состояния.

## ADDICTION-DANGEROUS VICES

Oblokulov Shavkat Shamsievich,

Bukhara State Institute of Medicine Biological kime assistant of the department

**Rakhmanov Otabek Rasulovich**

KIUT Kimyo International University in Tashkent.

Assistant of the Department of Fundamental Medical Sciences

**Turdaliev Komiljon Maksutalievich**

Tashkent State Dental Institute

Assistant of the Department of Physiology and Pathology.

**Annotation** affects the biochemical processes that a person undergoes in his body when he consumes a substance of narcotic nature. Changes in the production of hormones that control the course of biochemical reactions occur, disrupting the rhythm of the vital activity of the body. This article reflects on the origin and consequences of the above cases, and also includes the history of mankind's knowledge and use of narcotic properties in ancient times, the opinions of scientists of antiquity about narcotic-containing plants.

**Keywords:** addiction, cannabis, neurons, hormones, dopamine, human psyche, depressive states.

Наркомания- инсон организмининг таъсирчан моддаларга ўрганиб, қарам бўлиб қолишини англатади. Наркомания ёки гиёҳвандлик – қадим замонлардан буён маълум бўлиб, унинг дастлабки шакллари инсоният ибтидоий жамоа шаклида ҳаёт кечирган даврларда пайдо бўла бошлаган. Дастлаб олов кашф қилинганда одамлар совуқдан исиниш учун ҳар хил ўт ва шох шаббаларни йиғиб, ёқиб, гулхан атрофида тўпланиб ўтиришган ва маълум бир турдаги ўсимлик қисмлари ёқилганда кайфиятни кўтарувчи ва маст қилувчи ҳолатларни келтириб чиқаришини билиб олганлар. Шу тарзда ўсимликларнинг хусусиятларига қараб

бир-биридан ажратиб, эйфорияга олиб келувчи ўсимликлар алоҳида ажратиб олинган ва керакли вақтда уларни ёқиб, чиқаётган тутунидан нафас олиб, жамоавий шаклда базмлар уюштирилган. Манбаларда қайд қилинишича, антик даврда ҳар қандай диний маросимларда, қабилалараро урушдаги ғалабаларда, ва бошқа хурсандчилик вақтларда, шунингдек халқ табобатида таркибида наркотик сақловчи ўсимликлар ишлатилган. Бундан тахминан 3300 йил илгари Қадимги Мисрда каннабисдан наркотик модда сифатида кенг фойдаланилганлиги тарихий манбалардан маълум. Бундан ташқари, юнон тарихчиси Геродот “Тарих” асарида Марказий Осиё кўчманчи қабилалари ҳаёти тўғрисида тўхталар экан, шундай лавҳа келтиради: “кўчманчилар катта гулхан атрофида ўтириб оловга наша (каннабис) ташлашар ва унинг ҳидидан, гўёки эллинлар винодан маст бўлганидек, маст бўлишар экан”. Шунингдек, Гиппократ ўз асарларида ҳинд нашаси (ҳинд каннабиси) Европага скифлар томонидан Троян урушигача бўлган даврлардаёқ келтирилганлигини қайд этиб ўтган. Абу Али ибн Сино ўзининг “Тиб қонунлари” асарининг иккинчи жилдида наша (каннабис) нинг салбий жиҳатларини кўрсатиб ўтган, жумладан, 634-кўрсаткич мақолада “...наша уруғини кўп истеъмол қилинса, эрлик уруғини қирқади” деб ёзади. Шунингдек, 689-мақолада наша аъзоларни сусайтириши, кўзни хиралаштириши, меъдага зарар етказишини кўрсатиб ўтади.

Наркотик модда сифатида опий (афюн) Ироқ, Покистон, Хиндистон, Миср ва Осиё мамлакатларида айниқса кенг тарқалди. Олдинига опий ва унинг препаратлари тинчлантирувчи таъсирга эгалигидан жуда кам миқдорда, фақат тиббиётда ишлатилиб келинди. Сўнгра уи суиистеъмол қилиш натижасида аста-секин наркомания пайдо бўла бошлади. Гиёдвандлик эпидемияси Европа мамлакатларида утган асрнинг 50-нчи йиллари охири 60-нчи йилларининг бошларида, Осиё Мамлакатларидан анча йиллар олдин бошланган.

Гиёдвандлик ва рухий фаол моддаларни, шу жумладан наркотик моддаларни суиистеъмол қилиш натижасида юзага келадиган сурункали задарланишдир. Беморлар шундай моддаларни истеъмол қилишга мойиллиги, шу моддаларга рухий ва жисмоний қарам булиб қолганлиги, нейро- тропик моддаларга толерантлиги кучайиб бориши натижасида улар миқдорини аста-секин купайтириб бориши, шу билан бирга рухий касалланиш туфайли шахсининг инкирозга учрашига олиб борувчи хусусиятлари билан тавсифланади.

Гиёдвандликка наркотик моддалар жумласига кирувчи дорилар ёки бошқа



моддаларни суиистеъмол қилиш нахижасида юзага келадиган касалликлар киради. Токсикомания — наркотик моддалар руйхатига кирмайдиган зарарли доривор моддаларни, ва бошқа рухиятни узгартирувчи моддаларни суиистеъмол қилишдан юзага келадиган касалликдир.

Инсон наркотик хусусиятга эга бўлган моддани истеъмол қилганида, унинг организмда кечадиган биокимёвий жараёнларда ўзгаришлар содир бўла бошлайди. Бош мия нейронларида юзага келадиган ўзгаришлар гормонлар ишлаб чиқарувчи секреция безлари фаолиятига таъсир кўрсатиб, ортиқча миқдорда гормонал моддалар ишлаб чиқарилишига олиб келади. Наркотик моддалар истеъмол қилинганда қонда дофамин миқдори ортади. Ортиқча миқдордаги бу модда инсон психикасига таъсир этиб, депрессив ҳолатларни келтириб чиқаради. Уларни доимий истеъмол қилиш эса, организмда кечадиган биокимёвий жараёнларда наркотик модданинг иштирокини таъминлайди ва бевосита ўша наркотик модда организм учун ҳаётий зарур омиллар қаторига кўшилади. Шу сабабли, наркотикларга ўрганган инсон секин-аста унинг асирига айланиб боради. Наркотик моддалар истеъмол қилинганда, унинг таъсири бир неча минутда сезила бошлайди ва 3-12 соатгача давом этиб, қўзғалиш, сўниш босқичларидан иборат бўлади. Масалан, каннабисни чекиш йўли билан истеъмол қилган одамда биринчи бош айланиши кузатилиб, оғизда камфорасимон таъм сезилиб, сўлак ажралиши баъзида секинлашиши, баъзан эса ортиб, кучли очлик ҳиссини уйғотиши мумкин. Одам ўз фикр-мулоҳазаларини эркин баён эта олмайди ва мантиқсиз-хаёлий, муҳит билан боғланмаган нарса-ҳодисалар кўз ўнгида гавдаланади. Кайфияти кескин ўзгарувчан тус олиб, қаҳ-қаҳа отиб кулишдан аччиқ кўз ёш тўкишга ўтиши, хурсандчилик ўрнини қаттиқ қўрқув эгаллайди. Юқоридагиларга ўхшаш ҳолатлар бошқа турдаги наркотик моддалар истеъмол қилинганда ҳам у ёки бу шаклда юзага келиши мумкин.

Наркотик сархушликнинг клиник куриниши юкори кайфият (баъзида бегамлик, хаёлпарастлик), куп кулиш, телбалик, диққат чалғиши, фикрлаш қобилиятининг тезлашуви, харакатнинг тезлашуви ёки аксинча ланжлик, харакат мувофиқлигининг бузилиши, қадам ташлашнинг ўзгарувчанлиги билан намоён булади. Баъзида баджахиллик, жиззакилик, тажовузкорлик кузатилади. Тери қопламанинг қизариши ёки рангпарлиги, кўзнинг хиралашуви ва қорачиқларнинг кенгайиши кузатилиши мумкин. Доривор ва бошқа моддаларга бўлган рухий ва жисмоний қарамлик, толерантликнинг ўзгариши умумий аломатлар ҳисобланади.

**Рухий қарамлик** — наркотик таъсир ёки рухий келишмовчилик ҳолати ни йўқотиш мақсадида наркотик моддаларни истеъмол қилишга интилишдир. Наркотик моддаларини истеъмол қилишга интилишнинг ривожланишига куп омиллар сабаб булади. Бу омилларнинг асосийси моддаларнинг наркогенлик хоссаидир.

**Жисмоний қарамлик** — жисмоний ва рухий ўзгаришлар кўринишида юзага келадиган наркотик моддаларни сурункали истеъмол қилиш натижасидаги оғриқли ҳолатдир. Бу ҳолат моддаларни истеъмол қилмагандан ёки уларнинг антагонистларини истеъмол қилишдан юзага келади. Бу ҳолат наркотик моддаларнинг навбатдаги миқдорини бериш билан бартараф этилади.

**Толерантликнинг ўзгариши** — олдинги психофармакологик таъсирни юзага келтириш учун наркотик моддаларни янада кўпроқ миқдори талаб қилиниши натижасида наркотик моддаларга кўникишдир.

Одамда наркомания ривожланишини шартли равишда 3 босқичга бўлиш мумкин:

1. Бошланғич босқич- адаптация босқичи ҳам дейилади. Бунда организмнинг ёт моддага нисбатан акс-таъсир реакцияси салбийдан ижобийга ўзгара бошлайди ва психик қарамликнинг дастлабки аломатлари кузатилади.

2. Сурункали (хроник) босқич- бунда наркотик моддага жисмоний қарамлик шаклланиши тўлиқ тугалланади, абстиненция ва психоз ривожланади.

3. Ўтказиб юборилган ёки наркоманиянинг оғир шакли босқичи- бунда организмдаги барча ҳаётий муҳим органларда амалга ошувчи биокимёвий жараёнлар фақат наркотик моддалар истеъмолига боғлиқ бўлиб қолиб, ўткир психик, соматоген, неврологик ўзгаришларга олиб келади.

Хулоса қилиб айтганда организмда бирорта хужайра туқимаси йўқки, гиёҳванд модда унга токсик таъсир кўрсатмаса. У оқсил, углевод, еғ синтезига қатнашади, фермент метаболизмини бузади, туқима ядросининг митохондриясига таъсир қилади, мембраналар утказувчанлигини бузади, нерв импульсларининг утказувчанлигини узгартиради ва бузади.

Наркомания қандай шаклда ва турда намоён бўлмасин, у инсон организмда кечадиган биокимёвий жараёнларга ўзининг салбий ва ҳалокатли таъсирини ўтказмасдан қўймайди. Наркомания тузоғига илинган одам оилада ва жамиятда ўз ўрнини йўқотиб боради.

## Адабиётлар/Литература/References:

1. Али ибн Сино, “Тиб қонунлари” 2-жилд.1975 й. Тошкент  
Авторский Абу коллектив, “Справочник по психиатрии” 1985 г. Москва.
2. М.Д.Машковский, “Лекарственные средства” 1-2 томах. 1988г. Медицина. Москва.
3. С.Южаков. “Современные лекарственные средства”. Словарь-справочник. 2008 г. Москва
4. М.Набиев, “Гиёҳвандлик умр заволи”. 1989 й. Тошкент.
5. Ш.Ш.Облокулов. (2023). КРОТОН АЛЬДЕГИД МАВЖУДЛИГИНИ АНИҚЛАШ УСУЛЛАРИ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(13), 178–192. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/11483>
- 6.Ш.Ш.Облокулов 2023. КРОТОН АЛЬДЕГИД МАВЖУДЛИГИНИ АНИҚЛАШ УСУЛЛАРИ. *Новости образования: исследование в XXI веке*. 2, 13 (сен. 2023), 178–192.
7. Oblokulov S. S. THE MAIN TASKS OF TOXICOLOGICAL CHEMISTRY //O’ZBEKISTONDAFANLARARAINNOVATSIYALARVAILMIYTADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 624-626.
8. Oblokulov, Sh Sh. «THE MAIN TASKS OF TOXICOLOGICAL CHEMISTRY.» *O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.15 (2023): 624-626.
9. Oblokulov, S. S. (2023). THE MAIN TASKS OF TOXICOLOGICAL CHEMISTRY. *O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(15), 624-626.
10. Oblokulov Shavkat Shaimovich. (2022). Drugs Run In The Body Effects On Biochemical Processes. *Texas Journal of Medical Science*, 8, 63–65. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjms/article/view/1677>
- 11.Oblokulov Shavkat Shayimovich. (2022). HARM OF SYNTHETIC AND

NARCOTIC SUBSTANCES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 509–511. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/1068>

12.Облокулов, Ш. Ш. (2022). ЦИСТАНХЕ (CISTANCHE) ЎСИМЛИГИНИНГ ДОРИВОР ХУСУСИЯТЛАРИ. О'ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(10), 199-201. <http://bestpublication.org/index.php/ozf/issue/view/13>

13.Shaimovich O. S. DRUGS RUN IN THE BODY EFFECTS ON BIOCHEMICAL PROCESSES AND HARM OF SYNTHETIC AND NARCOTIC SUBSTANCES //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 888-890.

14. Shaimovich, Oblokulov Shavkat. “DRUGS RUN IN THE BODY EFFECTS ON BIOCHEMICAL PROCESSES AND HARM OF SYNTHETIC AND NARCOTIC SUBSTANCES.” *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 1.12 (2022): 888-890.

15.Shaimovich, O. S. (2022). DRUGS RUN IN THE BODY EFFECTS ON BIOCHEMICAL PROCESSES AND HARM OF SYNTHETIC AND NARCOTIC SUBSTANCES. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 888-890.

16. Ходжаева Н.И.,Шоюсупова А.У. “Психиатрия” Тиббиёт институтини талабалари учун дарслик. Мехридарё, Тошкент 2011 228-247 бет

МУНДАРИЖА

МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTINI BOSHQARISH BO’YICHA PR  
FAOLIYATI.....3

PARALLEL KORPUS YORDAMIDA INGLIZCHA FE’LLI  
FRAZEMALARNING O’RGANILISHI.....8

PARALLEL KORPUS YORDAMIDA INGLIZCHA FE’LLI  
FRAZEMALARNING O’RGANILISHI.....14

O’ZBEKISTON EKOLOGIK TASHKILOTLARINING AXBOROT  
SIYOSATINI OLIB BORISHDA QO’LLOVCHI SAMARALI  
PR-TEXNOLOGIYALARI.....19

CHET TIL TA’LIMIDA INDIVIDUAL YONDASHUVNING  
PSIXOLOGIK ASOSLARI.....24

THE DEVELOPMENT OF TEACHING METHODS IN ENGLISH TO  
STUDENTS IN HIGHER EDUCATION.....34

PR MATN JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING TA’SIRCHAN  
METODI SIFATIDA.....38

НАРКОМАНИЯ - ХАВФЛИ ИЛЛАТ .....45

